

**TURLI EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARIDA OQ JO'XORI DON
SIFARIGA TA'SRI****Fayzimurodov Jasur Baxtiyor o'g'li**

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Oq jo'xorining O'zbekiston 5 va O'zbekiston 18 navlarini Jizzax viloyatining kuchsiz sho'rlangan tuproqlari sharoitida uch muddat va to'rtta ekish me'yorini o'simliklarning morfologik ko'rsatkichlariga ta'siri bayon qilingan. Oq jo'xorini 1-aprel, 15-aprel, 1-may kunlari, 4 ta tup qalinligida (92 ming, 110 ming, 138 ming, 184 ming) ekib o'rganilib, don sifat ko'rsatkichiga ta'siri bayon etilgan.

Аннотация. Описание влияния трех сроков и четырех норм посева белого сорго сортов «Узбекистон 5» и «Узбекистон 18» на морфологические показатели растений в условиях слабосоленый почв Джизакской области. Белая кукуруза изучалась при посеве 1 апреля, 15 апреля и 1 мая, при четырех плотностях растений (92 тысячи, 110 тысяч, 138 тысяч, 184 тысячи), с целью определения их влияния на качественные показатели зерна.

Abstract: Description of the impact of three sowing dates and four sowing rates on the morphological characteristics of white sorghum varieties "Uzbekiston 5" and "Uzbekiston 18" under the conditions of slightly saline soils in the Jizzakh region. The white corn was studied when sowed on April 1, April 15, and May 1, at four plant densities (92 thousand, 110 thousand, 138 thousand, 184 thousand), with the aim of determining their influence on the quality indicators of the grain.

Kalit so'zlar. Oq jo'xori, oqsil, ekish muddati, ekish me'yo'ri, tup son qalinligi, o'simlik bo'yi.

Ключевые слова: Белая кукуруза, белок, срок посадки, норма высева, густота посадки, высота растения.

Key words: White corn, protein, planting time, seeding rate, plant density, plant height.

Kirish. Jo'xori o'zining biologik, xo'jalik belgi-xususiyatlariga ko'ra noyob donli ekin hisoblanadi. Dunyo dehqonchiligida keng tarqalgan ekinlar ichida 5-o'rini egalaydi [8]. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tub islohotlar negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni intensivlashtirish, kelajakda ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimini joriy etish, yangi navlarni tanlash, urug'lik materialning sifati, innovatsion usullarini joriy qilish, agroekologik resurs va boshqa omillardan samarali foydalanish borasidagi masalalar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy xususiyatlari qatoriga qurg'oqchilikga, sho'rga chidamliligi, yuqori

mahsuldorligi, yillar bo'yicha muqim hosildorligini ta'minlashi, oziqaviyligi va foydalanishdagi universalligini kiritish mumkin. Jo'xori donida 12-15% oqsil, 3,4-4,4% moy, 70-80% AEM, 2,4-4,8% kletchatka saqlaydi. Jo'xori doni oziqaviyligi jixatdan arpaga teng va hatto undan ham ustunlik qiladi [3],

Foydalanilgan materiallar va usullar Jizzax viloyatining kuchsiz sho'rlangan tuproq sharoitida o'tkazilgan tajribalarda (2018-2020 yy.) oq jo'xorining O'zbekiston 5 va O'zbekiston 18 navlari urug'lari 3 muddatda (aprelning 1-o'n kunligi, 2-o'n kunligi va mayning 1-o'n kunligi) hamda 4 ta tup qalinligida (92 ming, 110 ming, 138 ming, 184 ming) sinaldi. Dala tajribalarini tashkil etish, o'simlik va tuproq tahlillari, shuningdek, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini hisobga olish hamda fenologik kuzatishlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" [4] va "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур" [5] metodikalari asosida amalga oshirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Har qanday donli ekinlar urug'ini ekishda uning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tajribamizda O'zbekiston 5 va O'zbekiston 18 oq jo'xori navlarining 2018–2019 yillardagi donning sifat ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Bunda har ikki navning ekish muddatlari, ekish me'yori va kimyoviy tarkibining o'zgarishlarini o'z ichiga oldi. Ekish muddatlari 1-aprel, 15-aprel va 1-may bo'lib, har bir muddatda ekish me'yorlari 92 ming donadan 184 ming donagacha oshib bordi.

O'zbekiston 5 navi uchun quruq modda miqdori 44,8% dan 47,4% gacha o'zgardi. Moy miqdori 3,2% dan 3,9% gacha, oqsil moddasining miqdori esa 6,4% dan 8,3% gacha bo'ldi. Ushbu navda ekish me'yorining oshishi quruq modda va moy miqdorini kamaytirdi, shuningdek, oqsilning pasayishiga ham sabab bo'ldi.

O'zbekiston 18 navi tarkibiy jihatdan biroz yuqoriroq bo'lishi aniqlandi. Bu navda quruq modda 45,6% dan 48,2% gacha, moy miqdori 3,3% dan 4% gacha va oqsil modda 6,6% dan 8,5% gacha o'zgardi. Ekish me'yorining oshishi bu navda ham quruq modda va moy miqdorining kamayishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, oqsilning eng yuqori miqdori 15-aprel muddatida kuzatildi.

Umuman olganda, har ikkala nav uchun ekish muddatlari va ekish me'yorlari o'simlikning don sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston 18 navi quruq modda, moy va oqsil moddalari bo'yicha ko'rsatkichlari balandligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ekish muddatlarini va optimal ekish me'yorlarini to'g'ri tanlash oq jo'xori don sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega (1-jadvalga qarang).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston 5 va O'zbekiston 18 oq jo'xori navlarining don sifat ko'rsatkichlari ularning ekish muddatlari va ekish me'yoriga

sezilarli darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Har ikkala navda ham quruq modda, moy va oqsil moddalari miqdori aprel oyning ikkinchi o‘n kunligida ekish yuqori sifatga erishildi.

1-jadval

**Oq jo‘xori navlari donning sifat ko‘rsatkichlari
(2018-2020 yy)**

T/r	Ekish muddatlari	Ekish me‘yori, ming dona/ga	Quruq modda miqdori, %	Moy miqdori, %	Oqsil miqdori, %
O‘zbekiston 5 navi					
1.	01.IV	92,0	46,9	3,7	8,0
2.		110,0	45,8	3,6	7,7
3.		138,0	45,2	3,5	7,1
4.		184,0 (n-t)	44,8	3,2	6,4
5.	15.IV	92,0	47,4	3,9	8,3
6.		110,0	46,4	3,7	7,9
7.		138,0	46,3	3,6	7,7
8.		184,0 (n-t)	45,9	3,4	7,6
9.	1.V (n-t)	92,0	47,1	3,7	8,1
10.		110,0	46,8	3,7	7,7
11.		138,0	46,7	3,6	7,6
12.		184,0 (n-t)	45,8	3,4	7,4
O‘zbekiston 18 navi					
13.	01.IV	92,0	47,7	3,8	8,2
14.		110,0	46,6	3,7	7,9
15.		138,0	46	3,6	7,3
16.		184,0 (n-t)	45,6	3,3	6,6
17.	15.IV	92,0	48,2	4	8,5
18.		110,0	47,2	3,8	8,1
19.		138,0	47,1	3,7	7,9
20.		184,0 (n-t)	46,7	3,5	7,8
21.	1.V (n-t)	92,0	47,9	3,8	8,3
22.		110,0	47,6	3,8	7,9
23.		138,0	47,5	3,7	7,8
24.		184,0 (n-t)	46,6	3,5	7,6

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zangieva F.T. Fazы rosta i razvitiya zernovogo sorgo pri raznyx sroках poseva v lesostepnoy zone RSO-A // Vestnik Vladikavkazskogo nauchnogo sentra. 2016 №3. T 16. -S. 52-55
2. Zangieva F.T., Shorin P.M. Osobennosti tekhnologii vozdel'vaniya zernovogo sorgo v predgoryax RSO-Alaniya / Izvestiya Gorskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta. – Vladikavkaz, 2012. T. 49. №3. -S. 40–49.
3. Ruxlevich N.V. Sovershenstvovanie priyomov vozdel'vaniya sorgo na zerno v usloviyax lesostepi Srednogo Povol'ya // Avtoref. Na soisk. Uch step kand. S.x. nauk. –Kinel, 2017. 24 s.
4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. –T.: 2014. B-175.
5. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. -М.: Колос, 1971. -239 с
6. Fayzimurodov J.B, Xalilov N, Sanaqullv A.L. Jo'xori ayrim navlarining biometrik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari // Toshkent davlat agrar universiteti tashkil etilganligining 90 yilligiga" bag'ishlangan xalqaro konferensiyaning Materiallar to'plami 2020 yil 14-15 dekabr, -B. 772-776.
7. Shorin P.M., Zangieva F.T., Ikoeva V.A. Produktivnost sorgo v zavisimosti ot srokov seva i udobreniy v predgoryax RSO-Alaniya / Izvestiya Gorskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta. – Vladikavkaz, 2010. T. 47. № 2. -S. 22–25.
8. Thenkabail, P.S., Biradar, C.M., Turrall, H., Noojipady, P., Li, Y.J., Vithanage, J., Dheeravath, V., Velpuri, M., Schull, M., Cai, X.L., R. An Irrigated Area Map of the World Derived from Remote Sensing. IWMI research report 2015. PP. 1-26.